



## “QADRİNG BALAND BO`LSIN, ONA TILIM”

Olimova Oydina

*Namangan viloyati Namangan shahar 1-son kasb-hunar  
maktabi ona tili va adabiyoti fani o`qituvchisi*

Xalqimizning badiiy so`z sehrini o’zida jo qilgan, ko`ngil chashmasidan qaynab chiqqan injular, bamisoli jo`shqin daryoga o’xshaydi. Xalq qalbining navolari, dilrabo qo`shiqlari, an`ana va rasm-rusumlar, marosim-u odatlar, o`g`zaki poetik ijodiyat namunalari, ota-bobolarimiz iqtidori va chechan momolarimiz ijodiy salohiyatining mahsuli o`laroq shakllangan azaliy milliy qadriyatlarimiz, umrboqiy she’ru-g`azallarimiz, momolarimizning mehr bulog`idan qaynab chiqqan orombaxsh allayu olqishlar milliy tilimiz bilan qalbimiz-u shuurimizdan o’rin olishi tabiiy, albatta.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, o’zbek tilimizning nufuzi, obro’si va qadriga qaratilgan e’tibor tufayli bugunga kelib o’zbek tilimiz jahon davlatlarining ta’lim dargohlarida o’rgatilmoqda.

Til – milliy qadriyatlarimiz ichida eng ulug’ qadriyat hisoblanib, uni rivojlanib ravnaq topishi uchun mamlakatimizda keng ko`lamli ishlar olib borilmoqda.

Yurtimiz kishilarining ongida ona yurt, vatanga muhabbat uyg’otish bilan birga ona tiliga bo’lgan mehr va hurmatni yuksaltirish - mustaqillikni biz avlodlar oldiga qo’yan asosiy vazifa sifatida ko’rishimiz, o’z tilimizni asrashimiz, milliy til g’oyalarini chuqurroq va kengroq tarqatishimiz zarur. Til esa, yurtdoshlarimizni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ta’sirchan omil bo’lib xizmat qiladi.

Davrimiz kishilarining dunyo davlatlariga qiziqlishi va yetuklikka intilishi jahon davlatlarida o’qish va ishslash natijasida chet tillarini o’zlashtirish kundan kunga ravnaq topib bormoqda. Lekin chet tillari bilan o’z ona tilini aralashtirib gapirish yoki o’z tilini unutish bu - birgina tilga emas, ona Vatanga xiyonat bo’ladi, albatta.

Abdulla Avloniy aytganidek, ona tili millatning ruhi, o’z tilini yo’qotgan har qanday millat esa o’zligidan judo bo’lishi muqarrardir, albatta.

So’zchi holin boqma, boq so’z holini,

Ko’rma kim der oni, ko’rgilkim de der.

Ulug’ mutafakkirimiz, turkiy tilimiz otasi, she’riyat mulkining sultonini bo’lmish Alisher Navoiy bobomizning yuqorida keltirilgan misralarida ham ko’rishimiz mumkinki, so’zlayotgan kishining holiga emas, balki uning so’ziga e’tibor ber, so’zni kim aytayotganiga emas, kim qanday so’z aytayotganiga boq.



Bir millatning nomiga emas, so'zlayotgan tiliga boq, deya talqin etishimiz ham mumkin. Xaqning tiliga e'zozi, e'tibori, hurmatiga qarab u xalqning qay darajada buyuk ekanligini bilishimiz mumkin.

O'zbek tili - qadimiy va boy tillardan biri bo'lib, uning keng ko'lamli va muhtasham so'z xazinasi mavjud bo`lib, uning tovushlardagi rang-barangligi ona tilimizning qanchalik boy, serjilo ekanligini ko'rsatib beradi. Eng katta ma`naviy boyliklarimiz - xalq og'zaki ijodimiz, ajodolarimiz tomonidan yaratilgan badiiyat durdonalari bo'lib, bugungi sharq adabiyotiga qo'shilgan muazzam hissadir. Ayni mana shunday xalq og'zaki ijodi ham tilimizni qanchalik qadimiy ekanligini isbotidir.

Necha ming asrlarga tegishli bo`lgan afsonalarimiz, doston-u rivoyatlarimiz, maqol va iboralarimizdagi so`zlarning qo'llanishida, sinonim so`zlardan keng foydalanishida ham o'zbek tili lug`at boyligini beqiyos darajada ekanligini ko`ramiz.

O'zbek madaniyatimizda latif va latofatli so'zlardan foydalanish, so'z bilan iltifot ko'rsatish azaliy-abadiy urfdir.

O'zbek xalqimizni, o'zbek tilimizni bezab turuvchi til birliklarimizning borligi tinglovchining faqat qulog'ini emas, balki qalbini ham zabit eta oluvchi so'z birliklari, ya'ni kundalik hayotimizda har doim qulog'imizga chalinadigan so'zlar: "Assalom alaykum", "Vaalaykum assalom", "Xormang", "Bor bo'ling", "Barakasini bersin", "Xirmonga Baraka", "To'yga o'ting", "Osh bo'lsin", "Marhamat" kabi birliklarimiz nutqimizni yanada chiroyli va ravon qilishga yordam beradi.

Afsuski, bugungi kunda yuqorida keltirilgan latif va nazokatli so'zlarimiz qolib, ularning o'rniliga chet tilidagi so'zlarni qorishtirib gapirovatgan yoshlarga hayratda qolmay ilojimiz yo'q. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan bugungi kunda o'zbek tilimiz rivoji uchun olib borilayotgan islohotlarning ham tag zamirida yoshlarga o'z ona tiliga bo'lgan e'tibor va hurmatni yuksaltirishdir.

Insonni sharafi va iftixori uning madaniy so'zlashishidir. Kimki so'zlash odobiga rioya qilmas ekan, insoniylik sharifidan bebahra qoladi.

Yoshlarni hayotga qadam qo'ya boshlayotgan paytidan tilga nihoyatda ehtiyyot bo'lish, pala-partish gapirmaslik, tilni yolg'on bilan bezamaslik, yetti o'ylab bir so'ylash, lutf ila yumshoqlik bilan gapirish, ona tilini sevish, unga xizmatda bo'lish, e'zozlash kabi tushunchalar bilan o'stirmoq lozim.

ONA tilim, sen borsan, shaksiz,  
Bulbul kuyin she`rga solaman.  
Sen yo`qolgan kuning shubhasiz,



Men ham to`ti bo`lib qolaman.

O`zbekiston Xalq shoiri Abdulla Oripovning sodda va ravon tilda yozgan misralaridan butun bir tilning mohiyatini olib beruvchi katta bir hayot sabog`ini anglab yetish mumkin. Inson til bilan tirik, til bilan buyukdir. Demak, ona tili bilan inson yashaydi, ona tili yo`qolsa, to`tining holiga tushadi.

Navoiy bobomiz aytganidek, inson - guhari sharifi tildir, shunday ekan, tilga e`tibor - elga e`tibor ekanligi doim yodimizda bo`lishi kerakligini unutmog`imiz zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:**

1. Damirovich, M. R., Ibragimovich, T. I., & Sattarovich, A. U. (2022). The Role Of Spiritual And Educational Events In Promoting The Ideas Of Religious Tolerance And International Health. Brazilian Journal of Implantology and Health Sciences, 4(5), 42-47.
2. Sattorovich, A. U. (2023). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ASOSIY TAMOILLARI. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 2(20), 232-234.
3. Abdusalomov, U. S., & Boltaboyev, A. (2020). GENERAL CHARACTERISTICS OF THE MILITARY COMMITTEES OF THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Экономика и социум, (12 (79)), 10-13.
4. Abdusalomov, U. S. (2023). DEFENDING THE MOTHERLAND IS THE OBLIGATION OF EVERY CHILD. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 1(1), 6-9.
5. Sattarovich, A. U. (2022). We Should Follow the Example of Our Ancestors in Patriotism. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 6, 24-26.
6. Sattorovich, A. U. (2023). HARBIYLARNING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMNING AHAMIYATI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 1(12), 96-100.
7. Sattarovich, A. U. B. (2022). «HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI». Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(11), 90-97.
8. Абдусаломов, У. С. (2023). ЗАЩИЩАТЬ РОДИНУ-ОБЯЗАННОСТЬ КАЖДОГО РЕБЕНКА. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 5(5), 13-17.